

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.



Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


4



Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra)

5



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

26
aksiyadorlik
jamiyati

133
unitar korxona

283
boshqalar

4 683
oilaviy korxona

7 014
xususiy korxona

9 171
mas'uliyati cheklangan
jamiyat

21 310

tijorat korxonalarini

Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat — aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; — aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

7



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020-yil yanvar-noyabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2020-yil yanvar-noyabr oylarida 7 256 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 066 ta, xususiy korxonalar – 1 170 ta, oilaviy korxonalar – 3 781 ta, muassasalar – 58 ta va boshqalar – 181 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 5 170 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 023 taga yoki 4,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 683 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 558 taga yoki 4,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 3 781 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 363 taga yoki 9,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 9 526 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 846 taga yoki 124,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 171 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 611 taga yoki 121,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 066 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 143 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, 428 tani tashkil etib, ulardan 413 tasi yoki 96,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 76 taga yoki 122,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 68 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati
cheklangan jamiyatlar soni**
(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 473	4 437	5 620	7 560	9 171
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	263	385	618	816	1 203
Sanoat	571	717	908	1 218	1 452
Qurilish	585	731	956	1 356	1 518
Savdo	1 091	1 372	1 641	2 294	2 878
Tashish va saqlash	388	480	505	580	632
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	130	172	216	302	350
Axborot va aloqa	49	75	80	100	112
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	39	65	93	109
Boshqa turlar	367	466	631	801	917

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	56	57	167	337	413
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	7	47	88	103
Sanoat	34	33	51	91	113
Qurilish	2	1	10	18	21
Savdo	2	5	34	92	128
Tashish va saqlash	4	4	8	7	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	4	17	16
Axborot va aloqa	1	1	1	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1	2	4	5
Boshqa turlar	4	4	10	18	18

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Surxondaryo viloyati	413	140	273
Termiz sh.	195	35	160
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	21	6	15
Bandixon	x	x	x
Boysun	8	7	1
Muzrabot	17	6	11
Denov	13	6	7
Jarqo'rg'on	14	10	4
Qumqo'rg'on	12	6	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	15	10	5
Termiz	40	15	25
Uzun	31	17	14
Sherobod	15	7	8
Sho'rchi	15	8	7

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,8 %), Denov (12,0 %), Jarqo'rg'on (7,8 %), Qumqo'rg'on (7,4 %), Sho'rchi (6,8 %), Termiz (6,7 %), Sherobod (6,1 %), Uzun (5,3 %), Qiziriq (5,1 %), Sariosiyo (5,0 %), Boysun (4,8 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (4,2 %) va Bandixon tumanlarida (1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Denov (13,1 %), Termiz sh. (11,2 %), Qumqo'rg'on (10,5 %), Sho'rchi (7,6 %), Jarqo'rg'on (7,5 %), Sherobod (6,6 %), Qiziriq (6,5 %), Termiz (5,6 %), Boysun (5,5 %), Oltinsoy (5,0 %), Uzun (4,9 %), Muzrabot (4,9 %), Angor (4,0 %), Sariosiyo (3,9 %) va Bandixon (3,2 %) ulushiga ega.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,3 %), Termiz (9,4 %), Denov (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Boysun (5,7 %), Sherobod (5,6 %), Sho'rchi (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,1 %), Qiziriq (5,0 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,5 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,8 %) va Bandixon (1,5 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (12,4 %), Denov (12,3 %), Sherobod (8,9 %), Boysun (7,9 %), Qiziriq (7,8 %), Jarqo'rg'on (7,6 %), Oltinsoy (6,5 %), Sho'rchi (6,2 %), Uzun (6,1 %), Termiz (4,9 %), Muzrabot (4,9 %), Termiz sh. (4,5 %), Sariosiyo (4,0 %), Angor (3,2 %) va Bandixon (2,8 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for RSS, Bayroq, Gerb, Madhiya, Shaxsiy kabinet, and social media icons. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are links for O'zbek, Rossijskij, English, ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, KONTAKTLAR, and Qidirish. A search bar is present at the top right. The left sidebar lists "RASMIY STATISTIKA" categories: El'on qilish taqimisi, Metama'lumotlar, Makroko'rsatkichlar, Milliy hisoblar, Narx va indekslar, Investitsiyalar, Qurilish, and Tashqi iqtisodiy faoliyat. The central search interface has a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" containing options like Elektron hisobot, KTYaDR ma'lumotlari, Uslubly materiallar, Statistik klassifikatsiyalar, Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati, and Korxona pasporti. Below this is a form with fields for "Rasmidagi kodni kiriting" and "Kodni yangilash uchun rasmga bosing", with a "Qidiruv" button. To the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" listing various reports and publications. The bottom of the page shows a URL: <https://stat.uz/uz/bizmat/klassifikator>.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**